

---

## DALALARDA ISH QIZG'IN



Dala maydonlarida hozirda boshoqli don parvarishi, mineral o'g'it bilan to'yintirish, oziqlantirish, g'o'za qator oralariga agrotexnik ishlov berish ishlari olib borilmoqda.

Jumladan, tumanimizdagi "Oqtepa" MMTP hududidagi "Boxodir Mirzayev saxovati", "Katta Boltako'l" MMTP hududidagi fermer xo'jaliklari va "Sarmazor baxt zamini" fermer xo'jaliklarida ham dehqonlar joriy yilda g'alla va paxtadan mo'l hosil olish maqsadida sidqi dilan mehnat qilmoqdalar.



"Katta Boltako'l" hududidagi fermer xo'jaliklarida g'o'za qator oralariga agrotexnik ishlov berish ishlari qizg'in ketayotgan bo'lsa, "Sarmazor baxt zamini" fermer xo'jaligida chuqur yumshatish va ikkinchi kultivatsiyalash jarayoni olib borilmoqda.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2024-05-10 08:23:01